

---

## SO'X



### **Bilasizmi?**

Yangi Mehnat kodeksida mehnat shartnomasini bekor qilish, ya'ni ishdan bo'shatishning bir qator asoslari sanab o'tilgan.

Ular quyidagilardan iborat:

xodim va ish beruvchi kelishuvi bo'yicha;

mehnat shartnomasi muddati tugashi bilan ishdan bo'shash;

xodim o'z xohishi bilan ishdan bo'shashi;

ish beruvchi tomonidan xodimni ishdan bo'shatish;

tashkilot egasi almashganda, u qayta tashkil etilganda, tashkilotning bo'ysunuvi o'zgarganda xodim ishni davom ettirishni rad etishi;

xodimning yangi mehnat shartlarida ishlashni davom ettirishni rad etishi;

xodimning ish beruvchi bilan birga boshqa joyga ishlash uchun ko'chishni rad etishi;

tibbiy xulosaga ko'ra xodim sog'lig'iga to'g'ri keladigan boshqa ishga o'tishni rad etishi yoki ish beruvchida xodimga mos boshqa ish bo'lmagan taqdirda;

xodim va ish beruvchi ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha;

yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o'tmaganlik yoxud saylovda, tanlovda ishtirok etishni rad etish bo'yicha;

alohida toifadagi xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida ishdan bo'shatish asoslari mustahkamlangan asoslar bo'yicha.

**Qodiraliyev Murodjon Yusubjonovich - Farg'ona shahar adliya bo'limi bo'lim boshlig'i**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-18 17:11:26